

PAPER

INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING AMALIYOTDAGI SAMARASI

Sattorova Dilshoda Yuldashevna ^{1, *}

¹Qo'qon davlat universiteti, Fizika va astronomiya kafedrası o'qituvchisi

* satorovadilshoda78@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada zamonaviy ta'limda axborot texnologiyalarining roli, ularni ta'lim tizimiga joriy etishning ahamiyati va ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni o'rganiladi. Xususan, internet-platfomalar, elektron o'qitish vositalari va pedagogik ta'lim texnologiyalaridan ta'lim jarayonidagi samarasi ko'rib chiqilgan.

Key words: zamonaviy ta'lim, ta'limda interfaol usullar, elektron ta'lim, interaktiv vositalar, pedagogik yondashuv

KIRISH (INTRODUCTION)

Hozirgi zamonaviy ta'limda talabalarining bilim olish jarayonida faol ishtirok etishi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Interfaol ta'lim texnologiyalari — talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi faol muloqotga asoslangan o'qitish usullari, ular ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar ta'limda yangi metodik yondashuvlarni joriy etishga, shuningdek, o'quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi kadrlarning malakasi va sifatiga doimiy e'tibor qaratib kelmoqda. Prezidentimiz aytganlaridek, ta'lim beruvchi kadrlar nafaqat yuqori kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, balki yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lishlari, yosh avlodni tarbiyalashda namuna bo'lishlari zarur. Ta'lim sohasida ishlovchi kadrlar milliy qadriyatlarimizni, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirishi kerak. Ular yoshlarni ma'naviy yetuk, barkamol insonlar sifatida tarbiyalashda asosiy rol o'ynaydi. Ta'lim beruvchilarning zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi, doimiy ravishda o'z ustida ishlashi va ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi lozimligini ta'kidlaydi. Aqliy salohiyat — yangi bilimlarni tez egallash va ularni samarali o'rgatish qobiliyatidir. Ta'lim sifatini oshirish uchun pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish doimiy jarayon bo'lishi kerak. O'qituvchilarning malakasini oshirish, innovatsion usullarni joriy etish, amaliyotga

yo'naltirilgan ta'lim berish zarurligini ta'kidlaydi. Ta'lim kadrlarining ta'siri faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki ular yoshlar qalbida mustahkam axloqiy va madaniy qadriyatlar shakllantirishda ham muhim vazifa bajaradi.

METODOLOGIYASI (Methods)

Ta'lim muassasasida faoliyat olib borayotgan ta'lim beruvchi — tarbiyachi, ishlab chiqarish ustlarining ma'naviy qiyofasi ham kasbiy maxoratlariga ham bog'liqdir. Shaxsni tarbiyalash ishi nixoyatda murakkab va qiyin faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Ushbu xolat yosh avlod tarbiyasi uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamolotini balki jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Bizning nazarimizda zamonaviy ta'lim beruvchi qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak:

1. Ta'lim beruvchi jamiyat ijtimoiy xayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohatlar moxiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu bora o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berib borishi lozim.
2. Zamonaviy ta'lim beruvchi ilm — fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.
3. Ta'lim beruvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi lozim.
4. Ta'lim beruvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim — tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan xolda faoliyat tashkil

etishi kerak.

5. Ta'lim beruvchi ta'lim – tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olishi imkoniyatiga ega bo'lmog'i dardkor.

6. Ta'lim beruvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi shart.

7. Ta'lim beruvchi yuksak darajadagi pedagogik maxoratga, chunonchi, kommunikativlik layoqatiga ega bo'lishi, pedagogik texnika nutq, yuz, qo'l – oyoq va gavda harakatlari (mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

8. Ta'lim beruvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

9. Ta'lim beruvchi kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda, bejirim kiyinish; ta'lim – tarbiya jarayonida ta'lim beruvchining turli xil diqqatni tez jalb etuvchi bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar) dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, xatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishish) ega bo'lishi lozim.

10. Ta'lim beruvchi shaxsiy xayotda pok, atrofdegilarga o'rnatilgan bo'la olishi lozim.

NATIJA (Results)

Ta'lim beruvchi shaxsining mazkur talablarni o'zida aks ettira olgan qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota – onalar o'rtasida obro' – e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Albatta, o'sib kelayotgan yoshlarni, o'quvchilarni maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida turli xil ta'lim usullari bilan, ya'ni pedagogik usullar bilan tarbiyalash o'zining samarasini beradi degan umiddamiz. Misol uchun ta'lim berish jarayonida mumtoz musiqa va tarixiy an'analardan, jaxon klassik musiqalaridan foydalanish kabilardir.

Dars o'tish jarayonida, nafaqat musiqa darslari balki boshlang'ich ta'lim tizimi dasturiga kiritilgan boshqa fanlarning o'qitilishida ta'limning “Sen bilasanmi?”, “Kim chaqqon” o'yinlaridan “Sinkveyn”, “Avtofokus”, “Tushunchalar tahlili” kabi interfaol usullaridan foydalanish, talaba yoshlarning mashg'ulotlarga qiziqishini orttiradi. Bundan tashqari ularda mashg'ulotlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari ortadi. Quyidagi misolda biz ushbu usullarning qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin.

“Kahoot” dasturiga ushbu savollar kiritiladi va ularning javoblarini belgilash talab etiladi. “Sen bilasanmi” o'yin texnologiyasi orqali talabalarning o'zlashtirish darajasi aniqlanadi.

Savollar quyidagicha (1-jadval)

MUHOKAMA (Discussion)

Olingan natijalar interfaol ta'lim texnologiyalarining oliy ta'limda ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita ekanini tasdiqlaydi. Tadqiqot ko'rsatadiki, interaktiv usullar talabalarni nazariy bilimni amaliyotda qo'llashga, mustaqil fikrlash va muammo yechishga undaydi. Bu Bloom taksonomiyasidagi bilimni tushunish, qo'llash, tahlil qilish va baholash bosqichlarini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, bu texnologiyalar o'qituvchilar uchun ham faol pedagogik yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu usullar ta'lim jarayonini talabalar uchun qiziqarli va motivatsiyali qiladi, bu esa o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Biroq, tadqiqot chegaralari mavjud bo'lib, ular orasida interfaol texnologiyalarning turli sohalarida qo'llanilishidagi farqlar va metodikalarning moslashuvchanligi kabi masalalar bor. Mavzu

№	Savollar	№	Javoblar
1	Aylanish o'qiga ega bo'lgan jisimga qo'yilgan kuch va kuch yelkasining ko'paytmasi ...	A	massa markazi deyiladi
2	Jism muvozanat vaziyatidan chiqarilib, qo'yib yuborilganda uni dastlabki vaziyatiga qaytaruvchi kuch hosil bo'lsa, jismning bunday muvozanatiga ...	B	farqsiz muvozanat deyiladi
3	Jism muvozanat vaziyatidan chiqarilib, qo'yib yuborilganda uning vaziyatini o'zgartiradigan hech qanday kuch hosil bo'lmasa, jismning bunday muvozanatiga ...	C	turg'unmas muvozanat deyiladi
4	Jism muvozanat vaziyatidan chiqarilib, qo'yib yuborilganda uni dastlabki muvozanat vaziyatidan yanada ko'proq uzoqlashtiradigan kuch hosil bo'lsa, jismning bunday muvozanatiga ...	D	turg'un muvozanat deyiladi
5	Jism yoki jismlar sistemasining barcha qismlari massalari to'plangandek tuyuladigan nuqta ...	E	kuch momenti deyiladi
Javob: 1- ; 2- ; 3- ; 4- ; 5- ;			

mazmuniga mos metodlarni tanlash maqsadga muvofiq. Bu pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liqdir.

XULOSA (Conclusion)

Jaxon olimlarining ta'kidlashicha ta'lim jarayonida o'qitilayotgan , o'rgatilayotgan va ko'rsatilayotgan malumotlarning qabul qilinishi, yani ularning xotirada qolishi o'rtacha 20 -25 daqiqani tashkil etarkan. Shundan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu usullar ta'lim jarayonida eng yaxshi samaraga ega bo'ladi. Buning natijasida esa davlatimizning nomini ko'klarga ko'tara oladigan, o'z millati, o'z eli va yurti tinchligi va farovonligini o'ylab, shu maqsad yo'lida xarakat qilib , mehnat qiladigan yetuk farzandlar yetishib chiqadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

References

- Morozova, L. B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Tashkent: O'quv-texnologiya markazi. 2019.
- Frolova, A. V. Onlayn ta'lim platformalarining ta'lim samaradorligi. Ta'limda yangi texnologiyalar, 3(1), 45-56. 2021.
- Kuzmin, O. P. Pedagogik texnologiyalar va zamonaviy o'quv resurslari. Tashkent: Ilm va ta'lim nashriyoti. 2017.
- Shaykhutdinov, M. R. Ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llashning psixologik va pedagogik jihatlari. Journal of Educational Technology, 5(1), 23-30. 2019
- Kovalev, A. N. Interaktiv ta'lim vositalari va ularning samaradorligi. Tashkent: Innovatsion ta'lim nashriyoti. 2019.
- Sattorova, D. "USING CROSSWORD PUZZLES IN PHYSICS LESSONS."ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 32-34.
- Mirzaakhmad, Kurbonov, and Sattorova Dilshoda Yuldashevna. "USE OF MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING PHYSICS (IN THE EXAMPLE OF ELECTROMAGNETISM)."CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES 3.10 (2022): 119-122.

8. Yuldashevna, Sattorova Dilshoda, and Kurbanov Mirzaaxmad. "EFFECTIVE WAYS OF DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN TEACHING THE DEPARTMENT OF "ELECTRICITY AND MAGNETISM"."*International Journal of Early Childhood Special Education* 14.7 (2022).
9. Sattorova, D., and Sh Jo'martova. "USING MODERN EDUCATIONAL METHODS, DETERMINING STUDENTS' MASTERY LEVEL." *Open Access Repository* 8.12 (2022): 509-511.
10. Kurbanov, M., and D. Sattorova. "TALABALARNING FIKRLASH QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FIZIKADAN SIFATGA OID MASALALARNING O 'RNI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.5 (2022): 95-98.
11. Sattorova, D. "FIZIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI." *Confrencea* 11.1 (2023): 235-238.
12. Sattorova, D. "IMPORTANCE OF MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING PHYSICS IN PART OF "ELECTRICITY AND MAGNETISM"." *Science and innovation* 2.B10 (2023): 214-218.